

VENGRIYA MUSIQA TA'LIM TIZIMI

*Andijon davlat pedagogika instituti
“Tasviriy san’at va musiqa ta’limi” kafedrası dotsenti*

Raimova Dिल्фуза Maxamatsaliyevna

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti

“Musika ta’lim” yo’nalishi

2-bosqich 202-guruh talabasi

Soyibova Dilnavoz Kimsanboy qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vengriyaning zamonaviy musiqa ta’limi tizimi, uning shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutgan pedagogik an‘analar tahlil qilinadi. Xususan, Zoltan Kodaly tomonidan ishlab chiqilgan “Kodaly metodi”ning mazmuni, uning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi yoritiladi. Vengriya boshlang‘ich va o‘rta maktablarida musiqa savodi, xor madaniyati va musiqiy eshituvni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarining o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, musiqa ta’limining davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanishi, musiqiy maktablar va konservatoriyalar tizimi, pedagoglar tayyorlash jarayoni haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Zoltan Kodaly, metod, qo‘shiq, Vengriya, xalq qo‘shiqlari, musiqa ta’limi, solfedjio, xor.

Аннотация: В статье анализируется современная система музыкального образования Венгрии, педагогические традиции, сыгравшие важную роль в её становлении и развитии. В частности, освещается содержание «метода Кодая», разработанного Золтаном Кодемом, его теоретические основы и практическое применение. Рассматриваются особенности учебных программ, направленных на развитие музыкальной грамотности, хоровой культуры и музыкального слуха в венгерских начальных и средних школах. Также представлена информация о поддержке ¹музыкального образования на уровне государственной политики, системе музыкальных школ и консерваторий, а также о процессе подготовки педагогических кадров.

Ключевые слова: Золтан Кодай метод, песня, Венгрия, народные песни, музыкальное образование, сольфеджио, хор.

Annotation: This article analyzes the modern music education system in Hungary, the pedagogical traditions that played an important role in its formation and development. In particular, the content of the “Kodaly Method” developed by Zoltan Kodaly, its theoretical foundations and practical application are highlighted. The specific aspects of the curricula aimed at developing musical literacy, choral culture

1. ¹Ketskhemeti.G. 2010. “Vengriya musiqa ta’limi va Kodaly konsepsiyasi”. Garland nashriyoti.

and musical hearing in Hungarian primary and secondary schools are considered. Information is also provided about the support of music education at the level of state policy, the system of music schools and conservatories, and the process of teacher training.

Keywords: Zoltan Kodaly, method, song, Hungary, folk songs, music education, solfeggio, choir.

Asosiy qism: Vengriya musiqa ta'limi dunyoda eng samarali ta'lim modellaridan biri sifatida tan olingan bo'lib, uning shakllanishida xalq musiqasi, xor madaniyati va ilmiy yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Mamlakatda musiqa ta'limi uzoq tarixiy jarayonda takomillashgan, ayniqsa XX asrda Zoltan Kodaly metodi nafaqat Vengriyada, balki AQSh, Yaponiya, Avstraliya, Koreya va boshqa ko'plab mamlakatlarda, Osiyodagi davlatlarda ham keng qo'llaniladi. Musiqashunoslar bu metodni bolalarning intellektual, eshituv, ritm va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda eng samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etadi. Vengriyada musiqa ta'limi shakllanishi XIX asr oxiridan boshlangan bo'lib, milliy uyg'onish davrida xalq qo'shiqlarini to'plash, tasniflash va ularni ta'lim jarayoniga singdirish keng rivojlandi. Ferens Liszt, Zoltan Kodaly va Bela Bartok kabi bastakor va pedagoglar Vengriya musiqa maktabining poydevorini yaratgan buyuk shaxslardir. 1875-yilda tashkil etilgan Liszt nomidagi Vengriya musiqa akademiyasi mamlakat musiqa ta'lim tizimining ilk asosiy poydevori bo'ldi. XX asr boshlarida musiqani xalqqa yaqinlashtirish g'oyasi kuchayib, xalq qo'shiqlariga asoslangan o'qitish Vengriya maktablarida asosiy metodik yo'nalishga aylandi. Aynan shu davrda Kodaly va Bartok yuzlab xalq qo'shiqlarini yig'ib, ularni bolalar musiqiy tarbiyasida qo'llash bo'yicha ilmiy takliflar berdi. Kodaly metodi Vengriya musiqa ta'limini tubdan o'zgartirdi va o'quv jarayoniga yangi sifat kiritdi. ²

Kodaly metodining asosiy tamoyillari: musiqani aytish orqali o'rgatish, xalq qo'shiqlaridan asosiy o'quv material sifatida foydalanish, solfedjioni markazga qo'yish, qo'l ishoralari yordamida intonatsiyani boshqarish, ritmik bo'g'inlar tizimi orqali ritmni o'zlashtirishdan iboratdir. Bu metod bolaning tabiiy qobiliyatiga mos holda, musiqiy eshituvni bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Kodaly uchun musiqaga o'rgatish nafaqat kasbiy, balki ma'naviy tarbiya jarayonining muhim qismidir.

Vengriya umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi juda puxta tizimga ega. Boshlang'ich sinflarda har hafta bir necha musiqa darsi o'tiladi, o'quvchilar har kuni qo'shiq kuylash orqali musiqiy eshituvni mustahkamlaydi. Xalq qo'shiqlari asosidagi repertuar bolalarga tabiiy ohanglarni oson o'zlashtirishga yordam beradi. Bu bosqichda solfedjio eng oddiy pog'onalardan boshlanadi. O'rta maktabda intervallar, ritmik murakkabliklar, musiqiy tahlil, ansambl va xor kabi yo'nalishlar kengaytiriladi.

2. ²Kodaly.Z. 1974. "Tanlangan asarlar". Budapesht:Korvina nashriyoti.

Vengriyada ikki yo‘nalishli musiqa ta‘limi amalda: umumiy maktablarda umumiy musiqa savodi, maxsus musiqa maktablarida esa kasbiy tayyorlov olib boriladi. Maxsus musiqa maktablarida o‘quvchilar fortepiano, skripka, violonchel, torli cholg‘ular, vokal va folklor yo‘nalishlarida individual darslar oladi. Solfedjio va musiqa nazariyasi majburiy fan hisoblanadi. O‘quvchilar muntazam ravishda konsertlar, ko‘rik tanlovlar va festivallarda ishtirok etadi. Oliy musiqa ta‘limi Vengriyada juda rivojlangan. Liszt nomidagi musiqa akademiyasi, Debretsen, Seged, Miskolts, va Pecs universitetlaridagi musiqa fakultetlari xalqaro miqyosda e‘tirof etiladi. Bu muassasalarda kompozitsiya, dirijyorlik, ijrochilik, musiqa nazariyasi va pedagogika sohalarida malakali mutaxassislar tayyorlanadi. Oliy ta‘limning asosiy yondashuvi ustoz-shogird an‘anasi, individual mashg‘ulotlar va amaliy ijrochilik tajribasiga tayangan. Vengriya musiqa ta‘limi davlat siyosatida alohida o‘rin tutadi. Maktablarda musiqa fani uchun minimal dars soati qat‘iy belgilangan, davlat musiqa maktablari faoliyatini moliyalashtiradi, xor jamoalari va musiqiy tadbirlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, musiqa o‘qituvchilarining malaka oshirish markazlari faoliyat yuritadi. Infratuzilmaga katta e‘tibor qaratilib, maktablar musiqa xonalari, cholg‘u asboblari va texnik jihozlar bilan ta‘minlanadi.³

Vengriya musiqa ta‘limi O‘zbekiston uchun ham ko‘plab jihatlari bilan ahamiyatli tajribani tashkil etadi. Xalq qo‘shiqlariga asoslangan o‘quv modeli o‘zbek bolalarining musiqiy qobiliyatini tabiiy yo‘l bilan rivojlantirishga mos keladi. Kodaly metodining qo‘l ishoralari, solfedjio, ritmik bo‘g‘inlar kabi elementlari maktablarda musiqa savodini o‘qitishni yengillashtiradi. Shuningdek xor madaniyatini rivojlantirish, bolalar ijrochiligini qo‘llab quvvatlash, maxsus musiqa maktablari va umumta‘lim maktablari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish O‘zbekiston ta‘lim tizimi uchun dolzarb bo‘lishi mumkin. Xulosa qilib aytish mumkinki, Vengriya musiqa ta‘limi o‘zining chuqur ilmiy asoslari, xalq musiqasiga tayanganligi, tizimlilik va uzluksizlik tamoyillari, bolalarning musiqiy qobiliyatini tabiiy ravishda rivojlantiruvchi metodlari bilan jahonda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Ushbu tajriba musiqiy-ma‘rifiy tarbiya sohasida samaradorlikni oshirish uchun o‘ziga xos namunadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kodaly.Z. 1974. “Tanlangan asarlar”. Budapesht:Korvina nashriyoti.
2. Ketskhemeti.G. 2010. “Vengriya musiqa ta‘limi va Kodaly konsepsiyasi”. Garland nashriyoti.
3. Xulaxan, Maykl; Taka, Filipp. **“Boshlang‘ich mus. iqa ta‘limiga kognitiv yondashuv”**. Nyu-York: Oksford universiteti nashriyoti, 2008
4. <https://kodaly.hu>

3. ³ Xulaxan, Maykl; Taka, Filipp. **“Boshlang‘ich musiqa ta‘limiga kognitiv yondashuv”**. Nyu-York: Oksford universiteti nashriyoti, 2008.